

**MUQIMIY MAKTUBLARI VA
"SAYOHATNOMA" ASARI MATNI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MUQIMIY MAKTUBLARI VA
“SAYOHATNOMA” ASARI MATNI**

(yangi aniqlangan va matni qayta tiklangan asarlar)

UO*К: 575.144-25 658:908

КБК 20.1+65

М 64

Muqimiy. Muqimiy maktablari va “Sayohatnoma” asari matni. To‘plam.
– Toshkent: Nobel Print, 2025. – 76 b.

Asarlar to‘plamida Muqimiy asarlari joriy nashrlarida “g‘oyaviy tahrir”ga uchrab, nainki mazmunan xiralashgan, balki kommunistik mafkuraga moslashtirilib “ishlov berilgan” Muqimiyning she‘riy va nasriy makublari hamda “Sayohatnoma” asari matni mo‘tabar qo‘lyozma manbalar asosida qayta tiklangan. Shuningdek, shu paytga qadar ilmiy jamoatchilikka ma‘lum bo‘lmagan shoir maktablari birinchi marta ilmiy istifodaga olib kiritilmoqda. Bu kabi yangi topilgan va tahrir qilingan she‘riy asarlar mathining tiklanishi Muqimiy adabiy davrasini, badiiy-estetik dunyosini o‘rganishda muhim ilmiy qiymatga ega.

To‘plam oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari o‘quv jarayonida foydalanish uchun va Muqimiy she‘riyati ixlosmandlariga mo‘ljallangan.

**Nashrga tayyorlovchi va ilmiy
izohlar muallifi:**

Qo‘ldosh Pardayev – filologiya fanlari doktori, professor

Mas‘ul muharrir:

Nurbay Jabborov – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Shahobiddin Nuriddinov – QARDU dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Shermuhammad Amonov – TDO TAU dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

*To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 7-maydagi 2-sonli majlisi
bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN: 978-9910-8466-1-8

© **Pardayev Q., 2025**
Nobel Print, 2025

MUQIMIYNING YONMAGAN QO‘LYOZMALARI

“Qo‘lyozmalar yonmaydi”, degan eski, lekin hech qachon eskirmaydigan naql bor. Ushbu hikmatning haqiqatga nechog‘liq muvofiq ekani tarixda ko‘p bor isbotini topgan. Zamonlar evriladi, ulfatanatlar o‘rin almashadi, mafkuralar turlanadi. Ulardan har biri ulug‘ ijodkorlar, buyuk mutafakkirlar adabiy-ilmii merosidan o‘z manfaati yo‘lida foydalanmoq istaydi. Millatimizning buyuk va muhtasham tarixi, muazzam adabiyoti borligi isbot talab qilmaydi. Biroq tarix va taqdir taqozosi bilan xalqimiz boshdan kechirgan mustabid tuzumlarda haqiqatning ko‘ziga tuproq sochishga harakatlar bo‘lgani ham sir emas. Jumladan, sho‘rolar davrida milliy adabiyotimiz tarixi kommunistik mafkuraga moslashtirilgani, ulug‘ shoiru adiblarimiz asarlari “g‘oyaviy tahrir”dan o‘tkazilgani, mohiyatga zid talqin etilgani ma‘lum. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitining yetakchi namoyandalari bo‘lgan Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy adabiy merosi ham ana shunday adolatsizlik qurboniga aylangan.

“G‘oyaviy tahrir”ning eng xatarli jihati shundaki, badiiy matnii aslyatdan uzoqlashtiradi, uning natijasida shoir yoki adib asarlari tanib bo‘lmas holatga keladi, muallifning ijodiy niyati havoga sovriladi. Bu masala rus matnshunosligida ko‘proq ishlangan. Rus matnshunosi D.S.Lixachev: “Matnning “g‘oyaviy tahrir”dan o‘tishi asarning stilistik jihatlari bilan bog‘liq bo‘lishi yoki bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Tahrir ba‘zan butun matn tarkibiga, ayrim hollarda uning alohida qismiga aloqador bo‘ladi. Yozma yodgorlikka butunlay teskari ma‘no yuklanishi, matnda u yoki bu xil “g‘oyaviy tozalash” o‘tkazilgan bo‘lishi mumkin. Hatto asarga unda mutlaqo bo‘lmagan g‘oya qo‘shilishi yoki matnda mavjud bo‘lgan g‘oya “qisqartirilishi” hollari ham uchraydi”¹, deya ta’kidlaydi. Bu fikrlar rus adabiyoti materiallari tadqiqi munosabati bilan aytilgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyoti tarixiga ham to‘liq aloqadordir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitining Furqat, Zavqiy singari namoyandalari asarlari g‘oyaviy tahrir natijasida aslyatdan qanchalik yiroqlashgan bo‘lsa, ushbu “adabiy qatag‘on”dan

¹ Лихачев Д.С. При участии А.А. Алексеева и А.Г. Боброева. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2001. – С. 90.

Muqimiy adabiy merosi ham shunchalik ko'p jabr chekdi deyilsa, aslo mubolag'a bo'lmas. Navqiron matnshunos olim Qo'ldosh Pardayev "qo'lyozmalar changini yutish" borasidagi ko'p yillik tajribasi, chekkan zahmatlari tufayli Muqimiy asarlarining Respublikamiz qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan har bir qo'lyozmasini sinchiklab o'rgandi, shoir she'rlariga doir qo'lyozma manbalarni bandma-band, satrma-satr, so'zma-so'z qiyosladi, tahlildan o'tkazdi. Tayanch manba sanalgan shoirning o'z qo'li bilan ko'chirilgan dastxat bayozlarni tadqiq qildi. Natijada shoir asarlarining sho'rolar davridagi nashrlaridan tushirib qoldirilgan g'azallardan 69 bayt (138 misra), muxammaslardan 12 band (60 misra), masnaviylardan 11 bayt (22 misra), murabba'dan 1 misra. "Sayohatnoma"dan 16 band (64 misra) – jami 285 misra she'rni qayta tikladi. Muttasil izlanishlari natijasida Muqimiyning ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan 13 g'azal, 3 muxammas – jami 194 misra she'rini aniqlab, birinchi marta ilmiy muomalaga olib kirdi.

Yosh olimning ushbu izlanishlari natijasida Muqimiy haqidagi mavjud ma'lumotlarning, talqinlarning aksari ilmiy haqiqatga mutlaqo zid ekani ayon bo'ldi. Birgina misol. Shoir asarlarining barcha nashrlarida mashhur "Sayohatnoma" asarining mana bu bandi quyidagicha berilgan:

Unda bo'lus G'ozl dedl,

Ham mufti, ham qozi dedl,

Yurt barcha norozi dedl,

Qilg'on ishi ozor ekan.

Aslida, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasidagi Muqimiy asarlarini jamlagan 6352 raqamli qo'lyozma bayozning 181^b–sahifasida mazkur matn:

Anda bo'lus hoji dedl,

Ham mufti ham qozi dedl,

Yurti hama rozi dedl,

Bechora beozor ekan –

tarzida ekan.

Turkiylarda "Men nima deyman, qo'bizim ne deydi", degan mashhur naql bor. Ana, shoir nima degan-u "muharrir"lar matnini qanday ahvolga solgan. Biz istiholali xalqimiz. Ko'pincha bunday holatlarda o'tmish salaflarimizni oqlashga, "shunga majbur bo'lgan"ini isbotlashga harakat qilamiz. Lekin hech kim ularning tepasida turib "Muqimiyning (yoki boshqa ijodkorning) she'rini qayta yoz", degan talabni qo'ymagani aniq-ku. Hech bo'lmaganda, joniga xatar yetkazishi mumkin bo'lgan satrlarni qisqartirish imkoniyati bor edi-ku. Bu hol har qanday tafakkur egasini ilm yoki ijod kishisining e'tiqodi qanday bo'lishi zarurligi haqida chuqur o'ylarga toldirishi tabiiy.

Agar adabiy manbani yaxlit bir imoratga qiyoslansa, matnshunoslik uning poydevoridir. Adabiyotshunoslik ana shu poydevor ustiga qurilmog'i zarur. Aks holda u poydevorsiz inshoot singari omonat bo'lib qoladi. Endi boshdan do'ppini olib o'ylab ko'ring, Muqimiy asarlarining yuqoridagi kabi sun'iy "tahrir" qilingan matnlari asosida yaratilgan talqinlarning ilimga qanchalik aloqasi bor? Ma'lum bo'ladiki, muayyan adabiy asar tahlilini amalga oshirishda birlamchi manbalarni chuqur o'rganmasdan ishonarli ilmiy xulosaga kelish imkonsizdir.

Qo'lyozmalar chindan ham yonmas ekan. Haqiqatning qobirg'alari eyllib-bukilgani bilan sinmasligi rost ekan. Oradan ko'p emas, kam emas, yarim asrdan ko'proq muddat o'tib, ilmiy haqiqat, badiiy matn haqiqati yuzaga chiqyapti. Ana shunday tarixiy mas'uliyatning bir zarrasi yelkasiga tushayotgan Qo'ldosh Pardayev baxti kulgana mutaxassis, to'le baland inson desak, mubolag'a bo'lmas. Tabiiyki, yosh olim erishgan bu ilmiy natijalar Muqimiy adabiy merosi bo'yicha o'zigaicha zahmat chekib, ilmiy izlanishlar olib borgan G'ulom Karimov va Aziz Qayumovday ilmda maktab yaratgan ulug' ustozlar, Ahmadjon Madaminov, Abduvohid Shokirov, Rustam Tojiboyev, Abdullatif Turdialiyev, Otabek Jo'raboyev singari Muqimiy ijodi bilan shug'ullangan manbashunoslar mehnatining davomi sifatida yuzaga kelgan. Uning yutug'i, ana shu ilmiy muammo yechimiga doir mavjud tajribalarni umumlashtirganida, ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jihatdan takomilga yetkazganidir.

Muqimiyning biz bilmagan tomonlarini yoritayotgan, shoirni millatga qayta tanitayotgan ushbu to'plamga Muqimiyning she'riy va nasriy maktublari hamda "Sayohatnoma"lari matni qayta tiklangan asarlar kiritilgan.

Qo'qon adabiy muhitini birinchilardan bo'lib ilmiy tadqiq qilgan akademik Aziz Qayumov xonadonlaridagi suhbatlarimizdan birida ustoz olim kaminaning Furqat adabiy merosi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimdan mamnun ekanini aytib, zimnamga furqatshunoslikni kelajakda yanada rivojlantirish vazifasini yukladi. Keyin ustoz kuyinchaklik bilan: "Furqatshunoslikdan-ku ko'nglim to'q. Lekin Muqimiyday ulug' shoir ijodining o'rganishi davom etmay qolyapti-da. Shogirdlaringizga Muqimiy asarlarining qo'lyozmalari bo'yicha dissertatsiya mavzusi bersangiz, yaxshi bo'lar edi", deya maslahat bergan edi. O'sha zahoti: "Ustoz, ko'nglingiz xotirjam bo'lsin. Qo'ldosh Pardayev degan shogirdim ayni shu mavzuda doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanish boshlagan. Bir duo qiling, ana shu ishlar munosib darajada yuzaga chiqsin", degan edim. Qo'ldosh Pardayevning "Muqimiy she'rilarining matn tarixi, tahriri va talqini" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi hamda u nashrga tayyorlagan "Biz bilmagan Muqimiy (Yangi aniqlangan va matni qayta tiklangan asarlar)" to'plami ustoz Aziz Qayumov orzularining ro'yobga chiqqani isboti sifatida ham qimmatlidir. Hayot bo'lganlarida, bu ishdan birinchi navbatda u kishi xursand bo'lgan bo'lardi.

Ushbu to'plam "Qo'lyozmalar yonmaydi" degan hikmatni yana bir marta tasdiqlashga xizmat qiladi. Mustabid sho'rolar davrida ilmiy haqiqatlar yuziga tushgan g'uborlar tozalangani, Muqimiy asarlarining aslyatga har jihatdan muvofiq matnlari tiklangani buning isbotidir. To'plam ulug' shoir adabiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitadi va ijodkor asarlari bo'yicha kelajakda yaratilajak yangi tadqiqotlarga asos bo'ladi, degan umiddamiz.

Nurboy Jabborov,

filologiya fanlari doktori, professor

SHE'RIY MAKTUBLAR

MATNI QAYTA TIKLANGAN VA YANGI ANIQLANGAN MAKTUBLAR

ASSALOM

Ey, sipehrida sayodat mohi tobon, assalom,¹
Bahrida oliy nasablig' durri g'altoh, assalom.

Borini ko'rdim, mashoyixzodalarni ko'rmadim,
Sizdek ismat pardasida pok domon, assalom.

Bu duo shomu sahar: gar boqsalar soy toshlari,
Daf'atan bo'lg'ay, Iloho, la'lu marjon, assalom.

Orzular burjiddin aylab tulu' iqbolingiz,
Aylasun haq davlatingizni farovon, assalom.

Yurgonu turgonda doim yoringiz Ilyos o'lub,
Suv desangiz Xizr tutsin obi hayvon, assalom.

Ayribim Siz karam pasha, saxo andeshadin.
Tangdur, dunyo qorong'u misli zindon, assalom.

Yodingiz tushkan mahal ko'ngulg'a, ey oliy tabor.
O'tmog'i mushkil tomog'din luqmai non, assalom.

Lutfingiz mingin birig'a qaytaralmay yaxshilik,
Be nihoyat hasratim ko'p, dilda armon, assalom.

Voqotekim, o'tubdur mujmalan taqir etay,
Holim o'lsun sizga ma'lum, erdi pinhon, assalom,

Toshkandga kelganimdin to bu muddatlarg'acha,
Ko'zga uyqu kechalar kelmaydi chandon, assalom.

Xotirim noshod, tab'im lanj, g'ash doim dilim,
Ishtaho kam, quvvatim yo'q, zarra darmon, assalom.

Boisi ta'xiri xat bo'ldi bu lo hazliklarim,
Yo'qsa kelgan kun qilurdim, topsam imkon, assalom.

Mulla Yo'ldosh oxun ila munda kelgandin beri,
Ul kishi gar sog' esa, man dardi dandon, assalom.

Gar topib fursat qushumdin, gaplashay, deb boraman,
Lohaz ul kun anda yo'q imog'a farmon, assalom.

O'z ishi birlan agarchi so'rmagay, ovoradur,
Har nachuk bo'lsa omon bo'lsun qadrdon, assalom.

Beadad izhori ixlosu aqidatlar bilan,
Ul kishidin ham duo sizga hazoron assalom.

Charx etib sargashta bu jonibga keldik noiloj,
Bizga qolsa ayrilish yo'q erdi bir on assalom.

Vaslingizdin garchi kim qildi falak bizni yiroq,
Anglarnasang forig' duodin tanda to jon, assalom.²

Abdufattohni topib kelganda berdim xatlarin.
Ishlari bitmay chala, bormakka hayron, assalom.

Kecha-yu kunduz jadallab ishlarni bitkurub,
Qilmasam bo'lmas, - dedi-chun murg'i tayron assalom.

Arzu ixlose musohiblargaga deng bizlar uchun.
Qolmasun Shayxu Daloyil to Eshonxon, assalom

Paytini topib Miyon hoji to'ramga arz eting,
Bizdin o'tkan kechsalar, shoyadki, nuqson, assalom.

Loyuad bizdin duo kelganlarida yetkuring,
Nasriddin xo'ja mabodo yo Kalonxon, assalom.

Uchrasa bir to'da tojik birla gar Mulla Ziyoy,
Go', ki dorad har do'yi o'bar shumoyon, assalom.

Ertayu kech ting'ishib solduk quloq Xo'qandga,
Qilsa shoyad bizga ham deb bir musulmon, assalom.

Ayladim chin e'tiqod ila salom, ey dustlar,
Loaqal sizlar qilinglar bizga yolg'on assalom.

Shukri lilloh, aqrabolarni topib bu yerdaman,
Bir necha kun rizqimiz boricha mehmon, assalom.

Toshkandda, choyfurushlik rastasida xeshimiz,
Otlarni so'rsangiz Xo'ja Sulaymon, assalom.

Rastai mazkurni yoki gurunch kaffonidur,
Ro'baro'sida Hakimdur katta do'kon, assalom.

Ul kishiga tegsa deb xat qilsalar manga yetar,
Ahli rasta hammaga ma'lum namoyon, assalom.

Ruq'ayi manzuma qildim ming xijolatlar bilan,
Xushk xoli meravad savg'o zi domon, assalom.³

Oxirida xatlari tegdi muharram oyini(ng)
Dardmand erdim yetushti go'yi Luqmon, assalom.

Har hurufidin ko'ngullar ko'zgusi topib safo,
Kulbai ahzonlarim bo'ldi charog'on, assalom.

Fikr etarda bo'ldi mazmunin muyassar go'yiyo,
Bulbuli sho'ridaga sayri guliston, assalom.

Ma'nisidin sar-basar ro'berdi xotirjamlik,
Bo'lmasa dillar edi behad pareston, assalom.

Oxiri Mirza Kamolu, Ernazar Begimga ham,
Ayladi ushbu Muqimi ko'yi hijron, assalom.

TOSHKENTGA NAZM BILAN XAT

Assalom, ey oshnoyi qadrdonlar, assalom,
Qadrdonlar, ya'ni oqil nuqtadonlar, assalom.

Har qay-u mulkaga yetsa maqdamingiz yumnidin,
Yorab etsun tarh bog'-u bo'stonlar, assalom.

Himmati oliylaringiz oqibat rahbar bo'lub,
Ro'zi qilg'ay shukr fayzi jovidonlar, assalom.

Qo'l uzatsangiz agar ne ishga g'ayr az manfaat,
Zarraye ko'rmang ilohokim ziyonlar, assalom.

Ta'bingiz oyinasi zangori g'amdin pok o'lub,
Doimo xurram bo'ling, ko'p yil omonlar, assalom.

Ne sharaflig' soat erkankim kelib Xo'qandg'a,
Bo'ldingiz bir necha kunlar mehmonlar, assalom.

Bir Makaylikxon bilan yuzlashturalmay. ohkim,
Bo'ldi hasratlig' ko'ngul ustig'a qonlar, assalom.

Hafta o'tmay keldilar qishloqlaridin uchrashib,
Arzingizni mo'-bamo' qildim bayonlar, assalom.

Ko'p yurib qolganlariga behad armonlar qilib,
"Bormasam bo'lmas, - dedilar. - Toshkentlar", assalom.

Telbadin ma'zur tutsangiz karamdin ne ajab,
Bo'ldi xattim tark bir necha zamonlar, assalom.

Multamas shulkim salomingizni tark etmay turing,
Man ham emdi uzmayin to tanda jonlar, assalom.

Yodingizdan chiqmasam derman bu nisbat birlakim,
Yaxshi-yaxshi munda to bizdek yomonlar, assalom.

Orzuyi subhatingiz fikr-u yodim subh-u shom,
Sog'inurman oshkoro-yu nihonlar, assalom.

Alhamdillokim⁴ qo'lum ham topti sihhat andake,
Holi ne kechti debon qilman g gumonlar, assalom.

Kafshu mahsi to'g'rilar qilgan kalushga va dangiz,
Ayladi to xayringiz mundog' hayonlar, assalom.

Katta va yo kichkina bo'lmay xo'jam bo'lsun vasat,
Bir kiyay man ham kiyodur musulmonlar, assalom.

Yor-u ahbobim duosi-la, Muqimiy, zindaman,
Gohi sizdan ham manga kelsun nishonlar, assalom.

MUNDARIJA

MUQIMIYNING YONMAGAN QO'LYOZMALARI	3
SHE'RIY MAKTUBLAR.....	7
MATNI QAYTA TIKLANGAN VA YANGI ANIQLANGAN MAKTUBLAR.....	7
ASSALOM.....	7
TOSHKENTGA NAZM BILAN XAT.....	10
PAYG'OMI MAHZUMA.....	12
UL HUSN SULTONIGA SALOM.....	13
JAVOBI SALOMI MUQIMIY BA FURQATII	14
JAVOBNOMAI MUQIMIY BA FURQAT	16
MAKTUBI MANZUMAI FURQAT BA MUQIMIY (Furqat javob maktubi).....	18
JAVOBI RUQ'AYI NODIM NAMANGONIY	19
MOSKVAGA, JIYANI RO'ZIMUHAMMAD DO'SMATOVGA XAT.....	21
TILMOCHGA SALOM.....	22
NASRIY MAKTUBLAR.....	24
MATNI QAYTA TIKLANGAN "SAYOHA TNOMA" LAR.....	45
QO'QONDAN FARG'ONAGA.....	45
QO'QONDAN SHOHIMARDONGA.....	47
QO'QONDAN ISFARAGA	51
ISFARA SAYOHA TIDAN (yangi topilgan parcha).....	54
IZOHLAR.....	56
LUG'AT.....	62